

“Buyuk modelimiz mo’jizasi”

STM nemis tili fani o’qituvchisi Palvanova .N.O

“Go’zal va betakrorimsan, muqaddas Vatanim, jonim senga fido ,O’zbekistonim”! deb butun vujudim, bor qalbim bilan kuylab yuborgim keladi.Rost-da, bugungi tinch osoyishta farovon turmushimiz, ulkan bunyodkorliklar maydoniga aylangan Vatanimiz nafaqat bizlarning, hatto butun dunyodagi tinchliksevar xalqlarning havasini keltirmoqda. Bizning bebaho go’zal va bahtiyor hayotimizni yaqin qo’shni mamlakatlar xalqlari, shuningdek nufuzli xalqaro reyting tashkilotlari ham e’tirof etmoqda. Prezidentimiz qaroridagi “ Biz bundan 25 yil oldin o’z mustaqilligimizni qo’lga kiritib, avvalo milliy davlatchiligimizni tiklaganimiz, jahondagi mustaqil va suveren davlatlar qatoridan munosib o’rin egallaganimiz, o’zini oqlamagan eski, mustabid tuzumdan butunlay voz kechib, chuqur o’ylangan, milliy manfaatlarimizga to’la javob beradigan islohotlarga asoslangan, butun dunyoda “o’zbek modeli“ degan nom bilan tan olingan taraqqiyot strategiyasini amalga oshirganimiz bugungi kunda biz tanlagan, o’zimizga xos va o’zimizga mos rivojlanish yo’lining naqadar to’g’ri va hayotiy ekanini tasdiqlab bermoqda“, degan so’zlarining ayni haqiqat ekanligini hammamiz his qilib, ko’zlarimiz bilan ko’rib turibmiz.

Ha, “o’zbek modeli” chinakam mo’jizakor, buyuk qudratli rivojlanish omili bo’ldi deya bimalol ayta olamiz. Holbuki, ba’zi davlatlar hatto 50- 100 yilda ham erishaolmayotgan marralarga O’zbekiston 25 yilda erishdi. Aytishga oson! Ko’pni ko’rgan, mehnatkash va olijanob xalqimizning mardligi va matonat evaziga qo’lga kiritilgan g’alabalar Vatanimizning obro’sini yanada yuksaltirib ko’pchilik mamlakatlarni qoyil qoldirmoqda. AQSHdagi statistik- tadqiqot institutining 138 mamlakatda o’tkazgan so’rovlari natijalariga ko’ra O’zbekiston jahon miqyosida eng bahtiyor kishilar yashaydigan mamlakatlar Fransiya, Italiya, Buyuk Britaniya, Yaponiya kabi davlatlarni ortda qoldirib, 29-o’rinni egallagani, shuningdek, tezkorlik bilan rivojlanayotgan 5ta mamlakat safidan o’rin olgani barchamizning fahr-iftihor tuyg’ularimizni jo’sh urdirishi tabiiy, albatta. Bu yutuqlarda respublikamizda ahil-inoq bo’lib yashayotgan 136 millat va elatning hissasi borligini hisobga olsak, shahar va qishloqlarimizda bunyod etilgan bu go’zal va zamonaviy imoratlar, ko’rkam va mustahkam ko’priklar va ravon avtomobil yo’llari, elektrlashtirilgan temir yo’llar, bularning barchasi hamma sohalarda o’tkazilayotgan islohatlarning - mo’jizaviy “o’zbek modeli”ning samarasidir. Darvoqe, birgina temir yo’llar qurilishiga 4,5 milliard AQSH dollari sarflandi.Tog’ni teshib o’tib, uzoq manzillarni yaqin qilishga erishildi. Tez yurar “Afrosiyob” poezdi bu yil Buxoroga, keyingi yil esa Xorazmga keladi.

Xorazm markazi Urganch shahri ham “Afrosiyob” poezdiga munosib go’zal bo’lib, Istiqlolning o’tgan 25 yili bunyodkorliklarida kasb etgan beqiyos chiroyi bilan, shaharning bahtiyor xalqi o’zinig siyosiy ongi, ijtimoiy faolligi oshganligi bilan, hech kimdan kam bo’lmay, tinch va farovon yashayotgani bilan qarshi oladi.

Men mustaqilligimiz sharofati bilan Urganchimiz qanday ulkan yutuqlar va marralarga erishgani haqida ko’p gapirishim mumkin. Masalan, shaharning o’rtasidan oqib o’tayotgan Shovot kanalining qirg’og’iga beton emas go’yo billur to’shalganday chiroy ochdi. Ikki qirg’oqda asfaltlangan yo’l chetini nafarmon gullar bezab, bu yerda sayr qiluvchilarga bo’y taratadi. Tungi chiroqlar esa ikki qirg’oqda kanal bo’ynida marvariddek yaltirab, yulduzlar bilan o’ynashishadi. Bularni mavridi bilan yana hikoya qilib berarman

Bugungi fahr-iftihorim tinch va osoyishta hayotimizni mardlarcha himoya qilayotgan qudratli Armiyamiz sharafigadir. Hozirgi kunda kuchli professional tayyorgarlikka ega bo’lgan, yahshi ta’minlangan, Vatanimiz va xalqimizga sadoqatli milliy armiyamizga egamiz. Bu ham ”o’zbek modeli” ning mo’jizasi, chuqur o’ylangan islohatlarni amalga oshirish samarasidir. Yurtimiz mustaqilligi, uning havfsizligi va hududiy yahlitligining ishonchli kafolati bo’lgan Qurolli Kuchlarimiz bilan fahrlanishga barchamiz haqlimiz. Shimoliy - Garbiy harbiy okrug serjantlar tayyorlash maktabi ham Qurolli Kuchlarning faol o’quv dargohlaridan biridir. Men shu STMda ko’p yillardan beri ishlab kelmoqdaman va bu harbiy o’quv yurtlarida ham amalga oshirilgan chuqur islohotlarning samarasini o’z ko’zim bilan ko’rib,quvonchimdan g’ayratimga g’ayrat qo’shilmoqda. Zero, Prezidentimiz” Milliy armiyamiz-mustaqilligimizning, tinch va osoyishta hayotimizning mustahkam kafolatidir“ degan kitobida ta’kidlaganidek, milliy armiyamizni barpo etish jarayonlari O’zbekistonning o’z mustaqilligini qo’lga kiritish tarixi bilan uzviy bog’liqdir. Tarixiy chuqur islohotlarning eng muhim natijasini armiyadagi axloqiy- ruhiy, ma’naviy muhitning butunlay yangilanganida, jamiyatimizda armiyaga va harbiy xizmatga nisbatan yondashuv tamomila o’zgarganda yaqqol ko’rish mumkin. Yigitlarimiz uchun harbiy sohada xizmat qilish nafaqat fahrli burch, balki yuksak shon sharafiga aylandi. Bugun Armiyada xizmat qilishning nufuzi baland. Barcha ota –onalar o’z farzandlari voyaga yetgach, uni Qurolli Kuchlarimiz saflarida xizmat qilishini niyat qilishadi. Chunki zamonaviy jangovor texnik qurollarni mukammal egallagan yigitlarimiz millatning, yurtning iftixori bo’lishayotganini hammamiz ko’rib turibmiz. Bugun yurtimiz yoshlari uchun milliy armiyamiz haqiqiy hayot maktabiga aylandi. Bugun Armiyada xizmat qilishning nufuzi baland. Barcha ota –onalar o’z farzandlari voyaga yetgach,uni Qurolli Kuchlarimiz saflarida xizmat qilishini niyat qilishadi. Chunki zamonaviy jangovor texnik qurollarni mukammal egallagan yigitlarimiz

millatning, yurtning iftior bo'lishayotganini hammamiz ko'rib turibmiz. Bugun yurtimiz yoshlari uchun milliy armiyamiz haqiqiy hayot maktabiga aylandi.

Bizning STM dagi kursantlarning ham qalbida Vatanga muhabbat, yurt himoyasi, xalq osoyishtaligini ta'minlash sharaflari va muqaddas burch ekanligi ularning ko'zlaridagi o'tli nigohidan, yuzlaridagi samimiyat, dadillik va mardligidan ko'rinib turadi. Ayniqsa turli mashg'ulotlarda yuqori ko'rsatkichlari bilan namuna bo'layotgan kursantlarning sa'yi-harakatlari tahsinga loyiq.

Haqiqatda ham Vatan himoyachisi mashq qilishdan, o'qib –izlanish va malakasini oshirishdan to'htamaydi. Kasbga, burchga kundalik faoliyatga sadoqat shuni taqozo etadi.

Vatan tuyg'usi, Vatan himoyasi tushunchasi- deydi 3-o'quv vzvodi etakchi kursanti Namozov Otabek, shunday aziz va ulug' ne'matki, hayot yo'llarida, og'ir va mashaqqatli sinovlarda bizga hamisha kuch-quvvat bahsh etib, mardlik va jasoratga da'vat etadi.

-Bunday mashg'ulotlarning tez-tez o'tkazilishi kursantlarning professionallik va yetakchilik qobiliyatini yanada oshishi, o'quv mashqlari davomida zamonaviy kommunikatsiya vositalari va texnologiyalaridan keng foydalanish hamda uni amaliyotga izchil tatbiq etish bo'yicha kerakli malakaga ega bo'lishiga puhta zamin yaratmoqda,- deydi STM boshlig'i orinbosari-uslubiy bo'lim boshlig'i podpolkovnik M.Bekmurzaev, - jangavor- o'quv vazifalarini bajarish bo'yicha amaliy mashqlar eng ulug', eng aziz bayramimiz ozodligimizning chorak asrlik sanasi arafasida, ayniqsa, yuksak saviyada o'tmoqda.

Biz "Chet tillari va adabiyoti" sikli o'qituvchilari ham mamlakatimiz tarixida yangi sahifa ochgan O'zbekistonimiz mustaqilligining 25 yilligini munosib kutib olish uchun har qachongidan ham faollik ko'rsatib, mashg'ulotlar o'tkazishda bor mahoratimizni ishga solib, eng katta va bebaho boyligimiz bo'lgan tinchlik va osoyishtalikni ko'z qorachig'idek asrash, doimo hushyor va ogoh bo'lib, tinchlik uchun kurashib yashash juda muhim ekanini dars va suhbatlarimizda chuqur ochib berishga harakat qilamiz.